



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 26-dekabr

265-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

Auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 21¹ -moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Farg‘ona tumani Boymahalla MFY hududida joylashgan ilovada ko‘rsatilgan yer maydoni zaxira yer fondida ekanligi, “Yerelektron” ATT dasturi orqali tadbirkorlik faoliyati uchun auksion savdolariga chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida elektron dastur orqali vakolatli tashkilotlarning kelishuvi hamda muhokamadan o‘tkazilganligi inobatga olinsin.

2. Farg‘ona tumani Boymahalla MFY hududida joylashgan ilovada qayd etilgan bo‘sh yer uchastka Farg‘ona tumani hokimligi nomiga mulk huquqi asosida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin va mazkur yer uchastkalari tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda elektron auksionda realizatsiya qilish uchun qo‘yilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Qodirxonov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (V.Esonov), Davlat Kadastrlar palatasi tuman filiali (N.Otajonov) bilan birgalikda ushbu qarorga muvofiq Farg‘ona tumani hokimligining yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (M.Qodirxonov), Davlat soliq inspeksiyasi (I.Sharopov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (V.Esonov), Davlat Kadastrlar palatasi tuman filiali (N.Otajonov) Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 24-bandiga muvofiq, yer uchastkasi mulk huquqi bilan auksionga chiqarilganda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy boshqarmasi baholash tashkiloti tomonidan tayyorlangan hisobot va ekspertiza xulosasi asosida “Yerelektron” ATTga yer uchastkasining boshlang‘ich narxini kiritishi, yer uchastkasi ijara huquqi bilan auksionga chiqarilganda “Yerelektron” ATT avtomatik ravishda tegishli tuman (shahar) uchun belgilangan yer uchastkasiga nisbatan ijara va mulk huquqining minimal qiymati asosida auksionga chiqarilayotgan yer uchastkasini ijaraga olish huquqining boshlang‘ich qiymatini belgilanishini inobatga olsinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Qodirxonov zimmasiga yuklansin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T

Fargʻona tumani hokimining
2025-yil 26-dekabrdagi
265-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Fargʻona tumani hududida joylashgan boʻsh yer uchastkalari

T/r	Manzili	Yer uchastkasini "YERELEKTRON" tizimidagi raqami	Maydoni (gektari)
1	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/22	0,04
2	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/21	0,04
3	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/20	0,04
4	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/19	0,04
5	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/18	0,04
6	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/17	0,04
7	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/16	0,04
8	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/15	0,04
9	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/14	0,04
10	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/13	0,04
11	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/12	0,04
12	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/11	0,04
13	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/10	0,04
14	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/9	0,04
15	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/8	0,04
16	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/7	0,04
17	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/6	0,04
18	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/5	0,04
19	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/4	0,04
20	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/3	0,04
21	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/2	0,04
22	Fargʻona tumani Boymahalla MFY hududida	Y1730233056/1	0,04